

## ShARTNOMA № 8

### (ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UN DAN FOYDALANISH TO'G'RISIDA)

Chiroqchi tumani

«28» yanvar 2022 yil

Chiroqchi tuman elektr ta'minoti korxonasi keyingi o'rinlarda «Ta'minotchi» deb yuritiladi. O'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari Sh.Samadov nomidan, bir tomondan Chiroqchi tuman Tibbiyot boshqarmasi T.T.YO bylimi keyingi o'rinlarda «Iste'molchi» deb yuritiladi, O'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari O.Shaemanov keyingi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

#### 1. ShARTNOMANING MOHIYATI

- 1.1.Ushbu shartnoma bo'yicha «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ning buyurtmanomasiga muvofiq ulangan tarmoq orqali elektr energiyasi yetkazib berishni o'z zimmasiga oladi, «Iste'molchi» esa mazkur shartnomaning 1-ilovasida belgilangan quvvatdan elektr energiyasini qabul qilib olish va ilova qilinadigan jadval asosida byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidan haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2.Byudjet tashkilotining yil davomida smeta xarajatlariga kiritiladigan o'zgarishlar doirasida xizmat ko'rsatuvchi, xizmat oluvchilar tomonidan o'zaro kelishilgan holda shartnoma summasiga o'zgartirishlar kiritishga haqlidirlar.
- 1.3.Elektr energiyaning shartnoma tuzilgan kundagi amalda bo'lgan tarif bo'yicha quvvatning narxi 450 so'm 00 tiyinni tashkil etadi.

#### 2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 2.1.«Iste'molchi»ning huquqlari:
  - «Ta'minotchi»dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish chegarisiga yetkazib berishni;
  - elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarisida elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda cheklashni;
  - elektr energiyasi iste'molining oylik shartnomaviy miqdorini choraklik miqdor doirasida joriy chorak mobaynida 2 marta (1 va 2 oylarda ular tugaguncha 10 kundan kechikmay) qayta taqsimlanishini «Ta'minotchi»dan talab qilishga haqlidir;
  - elektr tarmoqlarining bo'linish chegarisida zarur sifatga muvofiq bo'lmagan elektr energiyasi yetkazib berilganda «Iste'molchi» o'z xohishiga ko'ra;
  - muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bo'lmagan holda yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni haqini to'lashni rad etishga;
  - «Ta'minotchi»dan shartnoma shartlarini bajarmaslik natijasida yetkazilgan zarami, boy berilgan foydani qoplanishini talab qilishga haqlidir;
- 2.2.«Iste'molchi»ning majburiyatlari:
  - hisobga olish joyi elektr tarmoqlarning «Ta'minotchi» bilan balansi, mansubligi bo'yicha bo'linish chegarisida o'tkazilsin (iste'molning hisobga olinishi bo'linish chegarisida amalga oshirilmagan vaziyatlarda).
  - elektr tarmoqlari, asbob-uskunalarining tegishli texnik holatini va xafvsizligini ta'minlash;
  - elektr energiyasini iste'mol qilishning o'rnatilgan tartibga rioya qilish hamda elektr energiyadan foydalanishda yuzaga keladigan avariyaalar, yong'inlar, elektr energiyasini hisobga olish asboblardagi nosozliklar haqida «Ta'minotchi»ga xabar berish;
  - reaktiv energiya ishlab chiqaruvchi uskunalarining ish rejimiga rioya qilish;
  - iste'mol qilinadigan elektr energiyasini hisobga olish asboblari va ulardagi tamg'alarining butligi saqlanishini ta'minlash;
  - ishlatilgan elektr energiyasi uchun tulovlarni o'z vaqtida amalga oshirish;
- 2.3. «Ta'minotchi»ning huquqlari:
  - «Iste'molchi»dan yetkazib beriladigan elektr energiyasi uchun oldindan tegishli haqni to'lashni va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uzil-kesil hisob-kitoblarni amalga oshirish;
  - Shartnomaga yoki shartnoma asosida berilgan buyurtnomaga muvofiq yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni asossiz rad etish natijasida yetkazilgan zarami qoplashni «Iste'molchi»dan talab qilishga haqlidir;
  - o'zining vakili tegishli amal qilish muddati bilan shaxsiy guvohtonmasi mavjud bo'lganda elektr hisoblagichlarni ko'rib tekshiradi;
  - ma'naviy jihatdan eskirgan elektr energiyasini induksion hisobga olish priborlarni reja asosida Davlat tekshiruvidan o'tkazmaydi hamda ularni zamonaviy elektron hisoblagichlarga almashtirilishini talab qiladi;
- 2.4. «Ta'minotchi»ning majburiyatlari:
  - qonun hujjatlariga muvofiq ushbu shartnoma majburiyatlarini o'z muddatda bajarilishini ta'minlash;
  - «Iste'molchi»ga shartnomada ko'rsatgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish chegarisiga yetkazib berish;
  - elektr tarmoqlarining balansi bo'yicha tegishlilik chegarisida elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda saqlash;